QO‘CHQOR NORQOBIL ASARLARIDA PRETSEDENT BIRLIKLAR

Abdulla Niyozmetov
Tojiboyeva Mahbuba Rahimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy uslubni boyituvchi omillardan biri bo‘lgan pretsedent birliklar xususida so‘z yuritilgan. Pretsedent birliklar lingvopoetik tahlilda muhim o‘rin tutishi, badiiy matn muallifining mahoratini belgilovchi mezon ekanligi Qo‘chqor Norqobilning she’riyati va nasri asosida dalillanadi. Havola qilingan xulosalarda har qanday badiiy matnda badiiy tasvir vositalari silsilasi pretsedent birliklar hosil qilib, matn sohibining mahoratining ko‘zgusiga aylanishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: uslub, badiiy uslub, lingvopoetik tahlil, pretsedent birliklar, mahorat, badiiyat, badiiy tasvir vositalari, tasviriy vositalar silsilasi, ta’sir, ta’sirchanlik, obraz, obrazlilik

PRECEDENT UNITS IN THE WORKS OF KOCHQOR NORQOBIL

Abdulla Niyozmetov
Tajiboyeva Mahbuba Rakhimovna

Abstract: This article discusses precedent units, which are one of the factors that enrich the artistic style. The fact that precedent units play an important role in linguopoetic analysis and are a criterion determining the skill of the author of an artistic text is argued on the basis of the poetry and prose of Kockhor Norqobil. The cited conclusions emphasize that in any artistic text, a set of artistic means of expression forms precedent units and becomes a mirror of the skill of the author of the text.

Keywords: style, artistic style, linguopoetic analysis, precedent units, skill, artistry, means of artistic expression, set of means of expression, influence, impressionism, image, imagery

Agar e’tibor qilinsa, har qanday adibning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy til elementlaridan turli xil janrlarda unumli foydalana olish, qahramon xarakterini ochib berishdagi so‘zni tanlay bilish uddaburonligi uning poetik uslubining xos jihati hisoblanadi. Qo‘chqor Norqobil asarlarining matn kompozitsiyasi va til uslubining o‘ziga xosligi uning badiiy ijodda kamolga yetganligi, asarlarida zamonamizning dolzarb ijtimoiy-ma’naviy muammolari badiiy talqin etilganligini kuzatish mumkinki, ushbu ijod namunalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha olib

(cc) BY

boriladigan tadqiqotlar uchun yetarli materiallar bera oladi. Shulardan biri pretsident birliklar xususida ham mulohaza yuritishga imkon beradi.

Shoir she'rlarining sintaktik qurilishida ixcham gaplar, atov gaplar, xalq she'riyatiga xos ixcham misralarga ko'p o'rin bergan. Bu ixcham misralar mag'ziga shoir katta ma'no yuklaydi. Inson dard-dunyosini sig'diradi. Shubhasiz, bu misralar qabatida qo'llangan pretsedent matnlarning hissiy ta'sir quvvati sezilib turadi. Ushbularga e'tibor qilinsa, bu holat aniq seziladi:

Ishq kuydirgan yurak bilan
Kimdir yig'lasa halol!
Men o'ldim...
Chin...
Chiriyapman.
Yopdim xonam - go'rimni...
Taqdir,
Qara,
Bir qiz yuvar
Yo'q odamning kirini. [Norqobil; 4, 136]

Yuqoridagi she'riy matnda pretsedent birlikka tortuvchi, xalq urf- odatlariga daxldor bo'lgan ikki holat bor. Biri *"Ishq kuydirgan yurak bilan Kimdir yig'lasa halol!";* ikkinchisi - *"Bir qiz yuvar Yo'q odamning kirini".* Bir qator hududlarda kishi vafotidan uch kun o'tib, uning tiriklikda kiygan kiyimlarini yuvish marosimi o'tkaziladi. Shoir ana shu odatga ishora qilayotganga o'xshaydi.

Ma'lumki, pretsedent birliklar xalq orasida mashhur bo'lgan va ular nutqida tez-tez qo'llanib turadigan matnlar hisoblanadi. D.Xudoyberganovaning fikricha, "Pretsedent birliklar hisoblanuvchi pretsedent jumlalar ham til egalari lisoniy xotirasida saqlanuvchi birliklar bo'lib, ularga barqaror birikmalar (frazeologizm, turg'un o'xshatish va metaforalar, nutqiy etiketlar, maqol va hadislar) kiradi".[Xudoyberganova; 3,141] Shoir bir she'rida *"Men atay tig' bilan o'ynashib yotdim"* desa, yana bir she'rida *"Boshimni topshirib qo'ydim qirovga"* deydi. Bundan tashqari, ba'zi o'rinlarlarda xalq etiketlarini, jumladan, qiziga nisbatan *"Samodil enam", ko'zmunchog'im, ko'ztumorim, qizalog'im, qiqir-qiqir qizim, qoramag'izim, qiyg'ir qaroshligim, qilig'i o'zim, ismaloqqinam*, ayoliga nisbatan *Hosi, Hosijon,* hamshira qizlarga nisbatan *"hamshirajon"* undalmasini, bolaga nisbatan *"bolajon",* taqdirga nisbatan *"tosh boshim"*singari so'z, birikma va gaplarni ishlatsa, *"boshimni chulg'adi taqdirning qori",* o'zaro suhbat davomida aytiladigan *"Uzr, boshingizni og'ritdim, ena*", *"Ena, so'rab qo'ying, menday shoirdan Faxrlanib yurgan do'stning barini...", "shayton ip esholmas sening oldingda"* singari xalqona jumlalar, *"To osmondan kelmay oyog'im", "Yolg'iz chopgan ot..."* singari xalq leksikoniga xos maqolnamo misralar ohangiga moslab ishlatilgan nutqiy etiketlar

(cc) BY

ham yo‘q emas. Qisqasi, shoir she’riyatining morfologiya va sintaksisiga oid lingvopoetik ko‘lami anchagina keng ekanligini dalillovchi timsollar ko‘p. Bu pretsedent birliklar Qo‘chqor Norqobil uslubidagi milliy va mahaliy koloritni yetakchiligini ko‘rsatib turadi. Keltirilgan dalillar hamda unga mos qarashlar shoir she’riyatining so‘z arsenali, to‘g‘rirog‘i, lingvopoetik xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Agar Qo‘chqor Norqobil hikoyalari ko‘zdan kechirilsa, badiiy tilning asardagi o‘rni va ta’sirchanlikni ta’minlashdagi vazifasi salmoqli ekanligini fahmlash mumkin bo‘ladi. Hikoyalarida pretsedent birliklarga alohida e’tibor qaratgani shunday deyishga asos beradi.

“Samodil” to‘plamida ajoyib bir hikoya bor - “Bu yerlarda hayot boshqacha”. Sarlavhani o‘qiboq, hikoyadagi voqelik o‘quvchiga sir bo‘lgan boshqa makonda o‘zgalar ko‘z o‘ngida sodir bo‘lishini tuyasiz. Lekin oldindan bir narsa - Qo‘chqor Norqobil uslubiga xos bo‘lgan bir haqiqat ayon: tavsif va tasvir “Surxon ruhi, sheva tili tarovati, personajlar individualligini shoirona jo‘shqinlik, va nihoyat, shirali xalqona ohangdorlikda...” berilganligini va “tasvirlarning bo‘liqligi, metafora, majoz-u ramzlarga to‘yintirilganligi, injaligi”da.[Rizayev;, 1, 14-16]

Badiiy asar tili nasrda, inchinun, hikoyada, birinchi galda, qahramon xarakteri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun voqelik tavsifidan ko‘ra qahramon xarakteristikasi oldingi rejada turishi darkor. Qo‘chqor Norqobil tamsiliy tavsiflardan qochib, hikoyani ayni voqelik markazida turgan Toshbuvi kampirni ta’riflash bilan boshlaydi. Uning yoshi ulug‘ligini alohida bir o‘xshatish bilan dalillaydi: *“Kampirning ignasidan ip o‘tmaganiga ancha bo‘ldi”*.[Norqobil; 5, 70-71] Qo‘chqor Norqobil uslubidan boshqacha uslubdagi adib ushbu tavsif-ta’rifga boshqacha yondashishi mumkin edi, masalan, “Kampirning to‘risidan go‘ri yaqin bo‘lib qoldi” yoki “Kampir munkillab qoldi”, deyishi tabiiy. Biroq bundayin tavsiflar Toshbuvi kampirga mos tushmaydi. Chunki u tamomila boshqacha. Uning uchun “qarigan”, “keksaygan”, “munkillab qolgan” singari sifatdosh-epitetlar to‘g‘ri kelmaydi. Qolaversa, bundan keyingi tavsiflar kampirning sayi-sumbatini to‘la dalillaydi: *“Ko‘z qurg‘ur xiralashgan. Yosh ham saksonga xabar berib turibdi. Lekin o‘zi ancha tetik”*.[Norqobil; 5, 70-71] Keltirilgan parchalardagi “ignasidan ip o‘tmaganiga ancha bo‘ldi” hamda “yosh ham saksonga xabar berib turibdi” singari obrazli jumlalar adib tilining xalqchil ekanligini dalillash barobarida, Toshbuvi kampirning tashqi qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq jonlanishiga olib keladi. Bu iboralar Surxon xududi xalqi tilida uchrar, biroq boshqa xududlarda ishlatilmaydi. Shu o‘rinda mana bu fikrlarni eslab o‘tmoq adolatdan bo‘ladi: “poetik strukturada muallifning kommunikativ niyati, kommunikativ maqsadi, hozirjavobligi, qahramonlar ruhiyati va xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etadi. SHuning uchun ham lingvopoetik tahlil ikki sohaning yukini yelkasida ko‘tarib turadi. Badiiy matnning har qanday shakli shoir yoki yozuvchining poetik mahorati asosida lingvistik birliklar mazmuniy

(cc) BY

strukturasiga joylanadi. Shu sababli ham lingvopoetikaning xom ashyosi hisoblangan matn umumiy til qonuniyatlari majmuasi sifatida talqin qilinadi".[Toshxo‘jayeva; 2, 36]

Muallif Toshbuvi kampirning “Guldirak momo” laqabi bilan atalishini asoslab bergan: “Qishloqda uni katta-kichik Guldirak momo deydi. O‘ziyam o‘rganib ketgan”. [Norqobil; 5, 70-71] Shu o‘rinda sal ilgariga ketishga to‘g‘ri keladi. Hikoya boshida muallif-hikoyachi katta-kichik Toshbuvi kampirni nima uchun “Guldirak momo” deyilishini tilga olar ekan, xuddi rus adib A.P.Chexovning hikoyada ishlatilgan detalga nisbatan aytgan “agar hikoyaning boshida gilamga miltiq osilgan bo‘lsa, hikoya oxirida u otilishi kerak”, degan ko‘rsatmasiga amal qiladi. Chol va Guldirak momo shaharga katta o‘g‘lini yo‘qlab borganlarida, o‘g‘li mehmonlari bilan qiyqirishib, ota-onadan ham istihola qilmay, aroqxo‘rlik qilib, nomiga parda bilan to‘silgan hovuzda cho‘milib maishat qilayotganlarida, chol tahoratga o‘tadi. Hovlida juda bahaybat va badfe’l bir it boqayotgan katta o‘g‘lining ishi cholga ma’qul ko‘rinmaydi. Itboqar xizmatchi mast bo‘lib uxlab qolganida, qo‘lidan arqoni chiqib ketgan it shiddat bilan tahorat olib qaytayotgan chol tomon hamla qilib yuguradi. Shunda Guldirak momoning guldiros ovozi eshitiladi: “*To‘x-t-a-a-a!”* It zambarakning o‘qidek bu guldiros ovozdan taqqa to‘xtab qoladi va g‘ingshib nari ketadi. Yozuvchining mahorati shundaki, ana shu “to‘xta” degan buyruq ma’nosidagi hayqiriqqa katta ma’no yuklagan. Bu so‘z ramziy ma’noga ega bo‘lib, bir tomondan, cholni tilka-pora qilish maqsadida chopib kelayotgan itni to‘xtatishga undash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, chol va kampirning bugungi globallashuv sharoitida kishilarning xudbinlik, hissizlik, o‘zbekona si’layi rahmga oddiy bir odat deb qarash urchib borayotganligiga qaratilgan. Bo‘lmasa, shahri azimda yashayotgan katta o‘g‘ilning besh yil mobaynida ota-onasini bir marta yo‘qlab bormaganligi, bolalarini sog‘inib kelgan ota-onaning oldiga mayka va tizzaishton bilan chiqishi, ularni so‘riga o‘tqazib qo‘yib, axmoqona maishatga berilishini qanday izohlab bo‘ladi? Qo‘chqor Norqobil Guldurak momo tilidan yangragan hayqiriq orqali ana shu betarbiya, bugunda urchib ketgan uyatsizlik, manmanlik, laganbardorlik, o‘zbilarmonlik singari illatlardan kishilarni insof-u tavfiqqa chaqiradi. Ularni nafaqat ota-onani, qarindosh-urug‘ni, balki yetti yot begonani ham hurmat qilishga, izzatini joyiga qo‘yishga, qadrlashga undaydi.

Yuqorida bejiz Guldurak momoni katta-kichik o‘z oti bilan emas, balki ana shu laqabi bilan chaqirishlarini, Toshbuvi kampir bu laqabga o‘rganib ketganligini tilga oldik. E’tibor berilsa, ana shu “katta-kichik”ning aksariyati beg‘ubor bolalar bo‘lib chiqadi. Ularni murojaatlariga diqqatni qarataylik: *“Guldirak momo, biznikiga borarkansiz, enam o‘rmak to‘qishga aytdi...”, “Guldirak momo, garttakkina qatiq berib turing...”, “Guldiyak momo, tuxum beying, tovug‘imiz kuyk bo‘pti”.* Agar birinchi gapga e’tibor qaratsak, adib aytimchi bolaning nutqida “*o‘rmak*” so‘zini

(cc) BY

ishlatganligini ko‘ramiz. “*O‘rmak*” - gilam to‘qish marosimi. Yozuvchi bu so‘zga izoh berib o‘tirmaydi. Balki bolaning bu aytimiga “*Enangga borib ayt, momom kelarkan, lekin siz o‘tgan hafta momom kigiz qilganda bormagan ekansiz. Belingiz belangimidi?* deysan”, deb javob qiladi. “*Kigiz*” - qo‘y junidan bosilgan polos. Guldirak momoning bu gapi uning xarakteridagi har bir gapga tegishli javob topa bilishini, Surxon koloritiga xos so‘zni topib ishlatganligini ko‘rsatadi va xarakterning individual qirralarini ko‘rsatib beradi. Yoki *“Guldirak momo, garttakkina qatiq berib turing...”* degan gapiga muallif ayni momo nutqi orqali kinoya-qochirimlarni qalashtirib tashlaydi. Undan oldin momo xarakteriga xos ana shu holatni qistirib o‘tadi: *“Momo xasis emas, kim nima so‘rab kelsa, beradi, kim qayerga aytsa boradi, ayniqsa, bola-baqrani jini suyadi, lekin uyidan chiqarayotib, ularni o‘qlab jo‘natadi”*. SHundan so‘ng mana bularni deydi: “Ma, o‘lay senga, supraqoqdi-yey, ma ol, buni kissanga sol. Qurt yeging kelsa, kelaver, beraman. Bola qizarinib-sizarinib, kampirning gapini qaytaradi. Bir qo‘li cho‘ntakda, qurtlarni ushlab-ushlab ko‘radi. Boshqa bir kuni: “Ke, bolam. Bu yil ham sigiring qisir qoldima? Mayli, ana, sigirni uyingga olib borib, bog‘lab qo‘y. Otangga ayt, yil o‘n ikki oy Yo‘lchining magaziniga boylangan itday qo‘rib, shishaga kirib, oraqqa cho‘milmasdan, bir oygina insof kirsa, senlarga bir sog‘in sigir olib beradi...” *Kampir bir korsan kosadagi qatiqni mishiqining qo‘liga tutadi. “Biror narsa kerak bo‘lsa, keptur*”. [Norqobil; 5, 71] Bu oddiy o‘zbek kampirining nutqi emas. Tom ma’noda *“ukkag‘ar baxshining qizi”*ning nutqi. Agar baxshining qizi bo‘lmaganida, ehtimol, uning nutqiga so‘zlar bu tariqa quyilib kelmagan bo‘lar edi. Bu gaplar qayerdan oqib kelar ekan? Shubhasiz, Guldirak momoning fe’l-ro‘yidan. Momoning nutqida kelgan metafora, metonimiya, o‘xshatish, dialektal talaffuz samaralari o‘laroq, uning biz e’tibor qaratgan nutqi benihoya jonli va ta’sirchan chiqqan. Surxon koloriti momoning nutqida qo‘llanagan “*supraqoqdi-yey*” (bolachaga nisbatan), “*gartakkina*” (“ozgina”), shuningdek, “*Yo‘lchining magaziniga boylangan itday”, “shishaga kirib, oraqqa cho‘milmasdan”* singari leksema va sintaktik butunliklarda namoyon bo‘ladi. Bunday nutqning ildizlariga nazar tashlansa, ana shunday nutq aynan Guldirak momoning xarakteridan kelib chiqadi, unga mos tushadi.

Yana Guldirak momoga xos bir nutq matniga e’tibor qarataylik. Kunlarning birida bir o‘spirin uning xuzuriga keladi. Snunda Guldirak momo mana nimalarni deydi: *“O‘ziyam zerikib o‘tiruvdim. Kiraver. Salimaning qoratoylog‘imisan?.. CHiq supaga. Ma, g‘ilmindi, ye. E, hozirgilar g‘ilmindini qayerdanam biladi... O, bolam, ol!.. Yaxshimikan? Bo‘ying shodarozday bo‘p tebranasan-a? Bilamiq, yupqa, garchish, shirguruch, to‘rta, qayla, ko‘chaosh nima bilmay o‘sayotganidan so‘ng shunday bo‘ladi-da. Enang tengilarning hammasi qiltanglaydi, qirqqa kirib-kirmay ko‘taram bo‘p qolgan... Ikki bola tug‘ib-tug‘may uv-uvlaydi, o‘rni o‘rib, qirni qiradigan payti, go‘r bo‘lama, o‘zimizdi eski ovqatlarni qilishni bo‘yni yor bermaydi,*

(cc) BY

bularni or bilishadimi-yey, bekor gap, erinadi, bilgani piyova, shuldir shurpa...”[Norqobil; 5, 72]

Hozirda e’tiborda turgan antropotsentrik nazariyaga ko‘ra badiiy asarning sujeti kishiga estetik zavq berishi barobarida, unga ma’rifiy tomondan ham ta’sir ko‘rsatishi, bilim berishi jihatidan muhim sanaladi. Yuqoridagi matnda Surxon koloritiga xos bo‘lgan belgilar aniq ko‘zga tashlanib turadi va ular o‘zbek tilining voha hududiga xos bo‘lgan o‘ziga xosliklaridan ogoh etadi. Momo tilida kelgan bir qator leksemalar boshqa hududlarda, masalan, vodiy tomonlarda umuman ishlatilmaydi. Farg‘onalik o‘quvchi balki bu so‘zlarning ma’nisiga u qadar yeta olmas, lekin ularning ma’no qirralarini chaqa olsa, o‘zbek tilining naqadar boy, naqadar serqatlam ekanligidan yana bir karra ogoh bo‘ladi. Afsuski, ana shu matnda ishlatilgan bir qator so‘zlar izohli lug‘atlarda ham berilmagan. Sharhga o‘taylik.

Guldirak momo xonadoniga kirib kelgan o‘spirinni xonadonga kiritib, supaga o‘tirg‘izar ekan, undan *“Salimaning qoratoylog‘imisan?”* deb so‘raydi. Gap tarkibidagi metonimiya (*qoratoyloq*) asli ot bolasining ma’lum yoshdagi nomi. Buni metonimiya qoidasi orqali ham bilishimiz mumkin: metonimiya yunoncha metanymia - qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chishi metonimiya hisoblanadi. Shu birgina ko‘pma’noli so‘z kampir nutqida o‘spiringa bo‘lgan simpatiyani to‘liq ko‘rsatishi barobarida, poetik so‘zga aylanib, ta’sirchanlik quvvati sezilarli darajada ortib bormoqda. Qolaversa, ot bolalarining yoshga tegishli nomlari ko‘chimga uchragan holda *qulunim, toychog‘im* tarzida bolalarni erkalash otlari sirasiga kiradi. Bundan tashqari, “*qora*” sifatining bu so‘z tarkibiga qo‘shilishi natijasida so‘zning ta’sirchanlik vazniga ulug‘lik, hurmat ottenkasini ham qo‘shgan. Shu gapdan so‘ng kampir o‘spirinni supaga taklif qiladi. Bunda inversiyadan foydalanadi: *Chiq supaga*. Agar gap “supaga chiq” shaklida kelganida ta’sirchanlik pasayishi yoki so‘nishi mumkin edi. Muallif xarakterning so‘zlash yo‘sinidan kelib chiqib, gapni ana shu shaklda ishlatib jonli, to‘g‘ri yo‘l tutgan.

Bundan keyingi gaplar bevosita hududiy belgilari bilan e’tiborni tortadi. *“Ma, g‘ilmindi, ye. E, hozirgilar g‘ilmindini qayerdanam biladi... O, bolam, ol!..”* Kampir nutqidagi “*O, bolam, ol!..*” sheva elementi mavjud. “*Ol*” buyruq fe’lidagi “l” tovushining tushirib ishlatish o‘zbek shevalarining barchasiga xos. Kampir ayni shu nutqda “*g‘ilmindi*” so‘zini ishlatadi. Bu hozirda unutilib ketayotgan bir ovqatning nomi. Keksalarning aytishicha, “*g‘ilmindi*” xamirdan tayyorlanib, orasiga qaymoq yoki saryog‘ surtib, xuddi ruscha “*blinchik*” singari o‘rab chiqiladi va pishirib iste’mol qilinadi. Bu o‘rinda kampirning iddaosi to‘g‘ri: *“E, hozirgilar g‘ilmindini qayerdanam biladi...”*

Shundan keyin kelgan *“bilamiq”, “yupqa”, “garchish”, “shirguruch”, “to‘rta”, “qayla”, “ko‘chaosh”* singari yetti xil ovqat turidan beshtasining qanday

(cc) BY

ovqat nomi ekanligi ham noayon. Muallif ana shunday jumboqlar orqali ham xarakter yaratish va uning nutqini mahalliylashtirish, ayni vaqtda, xarakterga moslab, sayqallash yo‘lidan borgan.

Guldirak kampirning mana bu gaplarini ham voha koloritining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholash mumkin: “Enang tengilarning hammasi *qiltanglaydi*, qirqqa kirib-kirmay *ko‘taram* bo‘p qolgan... Ikki bola tug‘ib-tug‘may *uv-uvlaydi*, *o‘rni o‘rib, qirni qiradigan* payti, *go‘r bo‘lama*, o‘zimizdi eski ovqatlarni qilishni *bo‘yni yor bermaydi*, bularni or bilishadimi-yey, bekor gap, erinadi, *bilgani piyova, shuldir shurpa*...” Kampir nutqidagi bugungi xotin-qizlarga berilgan bahosidagi “*qiltanglaydi*”, “*ko‘taram*”, *“uv-uvlaydi”* singari so‘zlar ham anglab yetishni taqozo qiladigan so‘zlar. Ularni taxminlabgina tushunib yetish mumkin. Darhaqiqat, bu so‘zlar ijobiy ottenkadan yiroq. Ayollarning erinchoq, noziklashib ketayotganligiga ishora. “Eski ovqatlarni qilishga esa bo‘yni yor bermaydi, bilgani piyova, shuldur sho‘rva” gapidagi ibora (*bo‘yni yor bermaydi*), ovqat nomlari (“*piyova” - piyozni qovurib tayyorlangan suyuq ovqat, “shuldur sho‘rva” ham piyovaning bir turi*) matn va qahramon xarakteriga hayotiylik olib kirgan.

Xullas, Qo‘chqor Norqobil mahoratli adib sifatida she’riy va nasriy asarlarida o‘zbek tilining javohirlaridan biri bo‘lgan pretsedent birliklar, har bir xarakterning muayyan hududda shakllangan so‘zlash va so‘z ishlatish yo‘sinidan kelib chiqib “so‘zlatgani” bu ijod namunalarga alohida fayz bergan, ularning lingvopoetik xususiyatlarini kuchaytirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ризаев Ш. Хотира ва муҳаббат қуршовида. Қўчқор Норқобилнинг “Осмон остидаги сир” китобига ёзган сўзбоши. // Қўчқор Норқобил. Осмон остидаги сир. - Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2015.

2. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарларининг лингвопоэтикаси. - Тошкент, Фан, 2015.

3. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри....дисс. - Тошкент, 2015.

4. Норқобил Қўчқор. Дераза рахидаги гул. Шеърлар. - Тошкент, Янги аср авлоди, 2008.

5. Норқобил Қўчқор. Бу ерларда ҳаёт бошқача.// Самодил. Ҳикоялар.- Тошкент, Янги аср авлоди, 2018.

(cc) BY